

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI PSIXOLOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

**Bekmatova Mohinur Rasulbek qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali*

*Media bo`lim boshlig`i*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ichki ishlar organlarida faoliyat yurituvchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasi, uning tarkibiy qismlari, shakllanishi va samarali faoliyat ko`rsatishi uchun zarur bo`lgan ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Kasbiy kompetensiyaning nazariy asoslari, diagnostika jarayoni, zamonaviy metodlar, amaliyotda uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo`llari haqida izohlar beriladi. Shuningdek, psixologning shaxs sifatleri, muloqot madaniyati, stressga chidamliligi va xodimlar bilan ishlashdagi yondashuvlar haqida muallifona fikrlar bayon etiladi.*

**Kalit so`zlar:** *kasbiy kompetensiya, psixologik xizmat, ijtimoiy-psixologik omillar, diagnostika, stress-menejment, muloqot, psixologik barqarorlik, moslashuv.*

### **Kirish**

Hozirgi kunda ichki ishlar organlarida psixologning o`rni va ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Chunki jamiyatda yuz berayotgan o`zgarishlar, jamoat tartibini saqlash jarayoni, kundalik stressli vaziyatlar va salbiy psixologik yuklamalar xodimlarning ruhiy barqarorligiga bevosita ta`sir qiladi. Shu sababli har bir bo`linmada malakali psixologning mavjudligi samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Psixologning kasbiy kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlar majmui, balki real vaziyatlarda to`g`ri qaror qabul qila bilish, xodimning ruhiy holatini to`g`ri baholash va unga moslashtirilgan yordam ko`rsatish, muloqotda ehtiyotkorlik, maxfiylikni saqlash, emotsional barqarorlik kabi ko`nikmalarning uyg`unlashgan shaklidir.

Muallif sifatida ta`kidlash joizki, psixologning o`zi ham ruhiy jihatdan barqaror bo`lishi, hissiy holatini boshqara olishi, o`z ustida muntazam ishlashi muhim. Chunki boshqaga yordam berish uchun avvalo o`zi ichki muvozanatga ega bo`lishi kerak.

### **Asosiy qism**

#### **1. Kasbiy kompetensiyaning nazariy asoslari**

Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma, sifat va qadriyatlar majmuasi. Ichki ishlar organlaridagi psixolog uchun quyidagi kompetensiyalar eng muhim hisoblanadi:

1. Nazariy va amaliy bilimlar. Psixologning psixologiya faniga oid asosiy tushunchalari, metodlari, tamoyillari bo`yicha bilimga ega bo`lishi va ularni amaliyotda qo`llay olishi.

2. Muloqot madaniyati. Xodim bilan to`g`ri, muloyim, hurmatli va samimiy tarzda suhbat qura olish, tinglash va to`g`ri savollar berish qobiliyati.

3. Psixodiagnostika ko`nikmalari. Turli testlar, kuzatish, suhbat va anketalar yordamida xodimning ruhiy holatini aniqlash va baholash qobiliyati.

4. Vaziyatni tahlil qila olish. Murakkab yoki favqulodda holatni tezda baholab, undagi asosiy muammoni ko‘rib, eng to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish qobiliyati.

5. Stressga bardoshlilik. Yuqori bosim va xavotirli sharoitlarda ham xotirjamlikni saqlash, vaziyatga berilmasdan o‘z ishini davom ettira olish.

6. Emotsional barqarorlik. O‘z hissiyotlarini nazorat qilish, bironing negativ his-tuyg‘ulariga berilmaslik va professional muvozanatni saqlash qobiliyati.

7. Kasbiy etika va maxfiylik. Xodimlarga tegishli ma‘lumotlarni sir saqlash, odo-b-axloq normalariga rioya qilish, har bir murojaatga mas‘uliyat bilan yondashish.

Aytishim joizki, psixolog har qanday sharoitda xotirjamlikni saqlashi, xodimning ruhiy holatini to‘g‘ri anglay olishi va vaziyatni chuqur tahlil qila bilishi zarur. Masalan, xodim asabiy yoki agressiv holatda bo‘lsa, psixolog u bilan bosqichma-bosqich, tinch ohangda suhbat olib borishi kerak. Bunday holatlarda psixologning o‘zi hissiyotga berilsa, vaziyat yanada murakkablashishi mumkin.

## 2. Ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarning ta‘siri

Psixologning kasbiy kompetensiyasi quyidagi omillar ta‘sirida shakllanadi:

1. Jamoaning psixologik iqlimi. Jamoa ichidagi do‘stona munosabat va o‘zaro hurmat darajasi.

2. Rahbariyatning psixologik xizmatga munosabati. Rahbarning psixolog faoliyatiga qanday e‘tibor va sharoit yaratishi.

3. Moddiy-texnik baza. Psixolog uchun zarur jihozlar, testlar va ish sharoitlarining mavjudligi.

4. Xodimlarning psixologik madaniyati. Xodimning psixologik yordamni qabul qila olish va o‘z hissiyotini boshqarish darajasi.

5. Ish yuklamasi. Xodim va psixologga yuklangan vazifalar hajmi va intensivligi.

6. Mehnat sharoitlari. Xavfsiz, qulay va tartibli ish muhiti hamda dam olish imkoniyati.

Agar ushbu sharoitlar qulay bo‘lsa, psixologning samaradorligi oshadi, aks holda uning faoliyatida to‘siqlar paydo bo‘ladi.

O‘ylashimcha, ba‘zan psixologning o‘zi emas, balki atrof-muhit uning samaradorligini pasaytiradi. Masalan, xodimlar psixologga murojaat qilishni uyat deb bilsa yoki rahbariyat psixologik tahlilning ahamiyatini tushunmasa, xizmat samarasi past bo‘ladi. Demak, psixolog nafaqat xodim bilan, balki butun tizim bilan muloqotda bo‘lishi kerak.

## 3. Diagnostika jarayoni va baholash mezonlari

Diagnostika psixolog faoliyatining eng muhim bosqichidir. Unda qo‘llanadi:

1. Suhbat. Xodim bilan bevosita muloqot qilib, ruhiy holati haqida og‘zaki ma‘lumot olish.

2. Testlar. Psixologik xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus savollar yoki vazifalardan iborat usul.

3. Kuzatish. Xodimning xulq-atvori, harakati va emotsional reaksiyalarini tabiiy sharoitda tahlil qilish.

4. Anketa. Xodim tomonidan yozma ravishda to‘ldiriladigan savollar orqali qo‘shimcha ma‘lumot to‘plash.

5. Psixometrik usullar. Shaxsning psixologik ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun ilmiy asoslangan maxsus metodlar.

6. Statistik tahlil. Olingan test va so‘rov natijalarini raqamlar orqali tahlil qilib, aniq xulosalar chiqarish.

Diagnostika xodimning ruhiy holati, stress darajasi, agressivlik, diqqatning tarqoqligi, emotsional charchoq kabi ko‘rsatkichlarni aniqlashga yordam beradi.

Shaxsiy qarashlarim orqali shuni ayta olamanki, diagnostikaning maqsadi xodimni “baholash” emas, balki unga yordam berishdir. Misol uchun, test natijalari xodimda charchoq yoki xavotir kuchayganini ko‘rsatsa, psixolog unga individual yordam rejasini ishlab chiqadi. Demak, diagnostika — tashxis qo‘yish emas, balki yo‘l ko‘rsatish vositasidir.

#### 4. Kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy metodlari

Ichki ishlar psixologlari quyidagi metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq:

1. Treninglar – Ma’lum bir ko‘nikma yoki bilimni amaliy usullar bilan o‘rgatishga mo‘ljallangan interaktiv mashg‘ulotlar. Masalan, liderlik yoki jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Seminarlar – Mutaxassislar tomonidan ma’lumot berish va muhokama qilish shaklidagi o‘quv uchrashuvlari. Bu orqali ishtirokchilar yangi bilim va tajriba olishadi.

3. Rolli o‘yinlar – Ishtirokchilar turli vaziyatlarda ma’lum rollarni bajarib, real hayotdagi muammolarni amaliy tarzda sinab ko‘rishadi. Bu ijtimoiy va professional ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

4. Psixologik simulyatsiyalar – Turli psixologik holatlarni yoki stressli vaziyatlarni o‘yin yoki simulyatsiya orqali model qilib, ularga reaksiyalarni o‘rganish.

5. Stress-menejment dasturlari – Shaxsning stressga chidamliligini oshirish va hissiy barqarorlikni saqlash uchun mo‘ljallangan mashg‘ulotlar va metodlar to‘plami.

6. Kommunikativ mashqlar – Aloqa, tinglash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv faoliyatlar.

7. AI dasturlari orqali diagnostika – Sun’iy intellekt vositalari yordamida psixologik, ijtimoiy yoki professional holatlarni tahlil qilish va natijalarni tez va aniq olish imkonini beruvchi texnologiyalar.

Nazarimda, shunday ko‘rinib turibdiki, simulyatsiya mashg‘ulotlari ayniqsa samarali, chunki u real vaziyatga yaqin sharoit yaratadi. Xodim qanday reaksiya ko‘rsatishini kuzatish va uni to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu usul nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

#### 5. Empirik natijalar va muallif tahlili

40 nafar xodim va magistrantlar bilan o‘tkazilgan amaliy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdi:

- muntazam treninglar stressga bardoshlilikni oshiradi
- muloqot ko‘nikmalari kuchayadi
- ruhiy charchoq kamayadi
- jamoada ijobiy psixologik muhit shakllanadi

Tadqiqotlar jarayonida kuzatilgan eng muhim xulosam shuki, psixologik xizmatga bo‘lgan ishonch oshgan sari xodimlarning motivatsiyasi kuchayadi. Ya’ni, psixolog bilan

ishlash xodimning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va kasbiy samaradorlikni oshiradi.

### **Xulosa**

Ichki ishlar organlarida psixologning kasbiy malakasi tizimning samarali ishlashida asosiy ro‘l o‘ynaydi. Yuqori malakali psixolog xodimlarning ruhiy holatini nazorat qilishi, stress darajasini kamaytirishi va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam berishi bilan jamoada sog‘lom psixologik muhitni ta‘minlaydi. Shuningdek, mavjud shart-sharoitlarni takomillashtirish, diagnostika vositalari va zamonaviy metodlarni keng joriy etish psixologik xizmatning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. PF-60-son Prezident Farmoni, 2022.
2. “Ichki ishlar organlari kasbiy madaniyat kodeksi”, 2023.
3. Avezov O.R. Psixologik xizmatning nazariy asoslari. Toshkent, 2021.
4. Pedagogika va psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2020.
5. Markova A.K. Kasbiy kompetensiya nazariyasi. Moskva, 2019.